

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR  
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy  
anjuman materiallari**

**TO'PLAMI**

---

**СБОРНИК**

**материалов международной  
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И  
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|   |     |
|---|-----|
| <b>G.N.Ostonaqulova, S.X.Zakirova</b>   |     |
| Sariqo'rg'on tarixiy yodgorlik tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati.....  | 117 |
| <b>S.X.Zakirova, R.Z.Rajavaliyeva, G.I.Ikromaliyeva</b>   |     |
| Shifobaxsh malina o'simligini madaniy o'g'itlar bilan oziqlantirish.....  | 121 |
| <b>M.X.Diyorova, S.N.Xoliqova</b>   |     |
| G'uzor massividagi qo'riq och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoiy xossalari.....  | 126 |
| <b>M.T.Isag'aliyev, R.B.Matholiqov, N.Sh.Xakimjonova, D.K.Tolibova</b>  |     |
| Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibining o'zgarishi .....  | 132 |
| <b>V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov</b>  |     |
| Yozyovon tumanining tabiiy geografik shart-sharoitlari.....   | 136 |
| <b>R.A.Iminchayev, M.A.Yuldasheva, J.G' Ma'rufjonov, G.M.Mamirjonova, G.G'.Yusupjonova</b>  |     |
| Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarning mineralogik tarkibi hamda mineral o'g'itlarning<br>ahamiyati, sinflarga bo'linishi .....                            | 140 |
| <b>R.A.Iminchayev, T.A.Fayziyeva, M.X.Boboyeva, D.S.Ro'zaliyeva, R.M.Raximova</b>   |     |
| Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlardagi Kovul o'simligining morfologiyasi, dorivorlik<br>xususiyatlari va tuproqning agrokimyoiy xossalariiga ta'siri ..... | 144 |
| <b>N.Sh.Bazarova, X.B.Mustafayev</b>  |     |
| Tuproqda kimyoiy birikmalarning to'planishi va insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklar.....  | 147 |
| <b>N.A.Ergasheva</b>  |     |
| Farg'ona va Qo'qon shaharlari tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari.....  | 150 |
| <b>N.I.Teshaboyev, O.A.Mirodilova, A.A.Bozorboyeva</b>  |     |
| Mikrobiologik o'g'itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri .....   | 157 |
| <b>M.A.Yusupova</b>   |     |
| Sug'orish ta'sirida qumliklarning o'zgarishi .....  | 160 |
| <b>O.K.Usmonov, M.A.O'lmasova</b>   |     |
| Almashlab ekish, tuproq unumdorligini oshirishni hamda sifatli chorvachilik mahsulotlari<br>yetishtirishni garovidir .....  | 164 |
| <b>Q.A.Darvonov, A.A.Saminov</b>  |     |
| Suyuq azotli o'g'itlar bilan bargidan oziqlantirishni kuzgi bug'doyning rivojlanish<br>fazalariga ta'siri .....   | 167 |
| <b>S.A.Maxramxujayev, A.N.Meliqo'ziyev, O.D.Saidova</b>   |     |
| Yangi o'zlashtirilgan eroziyalangan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar va gips<br>differensiatsiyasi .....  | 170 |
| <b>R.M.Abdurahmonov, M.I.Mahmudova, Q.M.Shermatova, G.H.O'tanova,<br/>G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova</b>   |     |
| Kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning afzalliklari .....  | 174 |
| <b>R.A.Iminchayev, M.A.Sattorova, J.G 'Yigitaliyev, J.G'.Ma'rufjonov, M.X.Boboyeva</b>  |     |
| Janubiy Farg'onada shakllangan och tusli bo'z tuproqlarni agrokimyoiy xossalarni o'zgarishida azotli<br>o'g'itlarning o'mi hamda ulami ishlab chiqarish .....     | 178 |
| <b>S.M.Nazarova, Z.R.Avliyoqulov, Y.G'.Ismoilova</b>  |     |
| Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlari tahlili.....  | 182 |
| <b>A.T.Turdaliyev, G'.G'.Mamajonov, Y.H.Muhammadov</b>  |     |
| Sug'oriladigan tuproqlarda lantanoidlar va radioaktiv elementlar geokimyoisi .....  |     |
| <b>M.Z.Mamadaliyev</b>  |     |
| Kuzgi bug'doyning barg sathi maydoniga sholi poxoli, mahalliy hamda mineral o'g'itlarning<br>ta'siri .....  | 192 |
| <b>G'.T.Parpiyev, N.A.Qilichova</b>   |     |
| Konimex tabiiy-geografik rayoni tuproqlarining mikro va makroagregatligi .....  | 195 |

### 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

|   |     |
|---|-----|
| <b>V.Y.Isaqov, G'A.Akbarov</b>  |     |
| Farg'ona vodiysi qumli hududlarining umumiyl tafsifi.....                                 | 200 |
| <b>M.A.Газиев, З.А.Мукимов</b>  |     |
| Роль органических веществ в стимулирование деятельность почвенных<br>микроорганизмов..... | 204 |



## FARG'ONA VODIYSI QUMLI HUDUDLARINING UMUMIY TAVSIFI

## ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕСЧАНЫХ УЧАСТКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

## GENERAL CHARACTERISTICS OF SANDY AREAS OF THE FERGANA VALLEY

Isaqov Valijon Yunusovich<sup>1</sup> <sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti, b.f.d., professorAkbarov G'olibjon Alisherovich<sup>2</sup> <sup>2</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant**Annotatsiya**

Maqolada Farg'ona vodiysida tarixiy shakllangan qumli hududlarga umumiyo tafsif berilgan. Qumli hududlarning geomorfologik xususiyatlari, iqlim sharoitlari va biologik xilma-xilligi, shuningdek, antropogen ta'sirlar natijasida vujudga kelayotgan ekologik muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari qumli hududlarni barqaror boshqarish, ekologik monitoringni kuchaytirish va tuproq deflyatsiyasi va eroziyasiga qarshi kurashishda zarur choralar ko'rish lozimligini ko'rsatadi.

**Аннотация**

В статье дается общая характеристика исторически сложившихся песчаных территорий Ферганской долины. Анализируются геоморфологические характеристики песчаных территорий, климатические условия и биологическое разнообразие, а также экологические проблемы, возникающие в результате антропогенного воздействия. Результаты исследований показывают, что необходимо принять необходимые меры для устойчивого управления песчаными территориями, усилить экологический мониторинг и бороться с дефляцией и эрозией почв.

**Abstract**

The article provides a general description of the historically formed sandy areas of the Fergana Valley. The geomorphological characteristics of the sandy areas, climatic conditions and biological diversity, as well as environmental problems arising from anthropogenic impact are analyzed. The research results show that it is necessary to take the necessary measures for sustainable management of sandy areas, strengthen environmental monitoring, combat deflation, and soil erosion.

**Kalit so'zlar:** Qumli hududlar, geomorfologiya, ekologik muvozanat, antropogen ta'sir, tuproq eroziyası, ekologik monitoring, barqaror boshqarish.

**Ключевые слова:** песчаные территории, геоморфология, экологический баланс, антропогенное воздействие, эрозия почв, экологический мониторинг, устойчивое управление.

**Key words:** sandy areas, geomorphology, ecological balance, anthropogenic impact, soil erosion, environmental monitoring, sustainable management.

**KIRISH**

Qumli hududlar, asosan, vodiyning markaziy va janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, bu yerlar quruq cho'l ekotizimlari bilan xarakterlanadi. Ular qurg'oqchil iqlim sharoitida hosil bo'lgan eroziya va deflyatsiya jarayonlari natijasida shakllangan. Farg'ona vodiysining qumli dahalari Sirdaryoning chap sohili bo'ylab Qayroqqum suv ombori qirg'oqlaridan sug'oriladigan yerlar orasidan sharq yo'naliishiha 120 km ga cho'zilgan. Kengligi 30 km ga etadi. Qumliklarning umumiyo maydoni 180 km<sup>2</sup>.

Qumliklarning 1957-1960 yy-lardagi 1:200000 mashtabli topografik kartalar bo'yicha hisoblangan maydoni 670 km<sup>2</sup> bo'lib, o'tgan 60 yil ichida antropogen ta'sir natijasida 3,7 martaga kamaygan [1]. Qumli dahalarning ekologik, meliorativ va morfogenetikaviy holatlari jiddiy o'zgargan. Demak, qumli hududlarning hozirgi holatini tadqiq qilishga, tabiiy muhitni saqlash, muhofaza qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga zaruriyat yuzaga kelgan.

### 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qumlar geografiyasi, kelib chiqishi, qumli yaralmalarning shakllari, xossa va xususiyatlari, mineralogik tarkibini hamda qumli dahalar orasida shakllangan tuproqlarni o'rganishga A.Middendorf (1882), V.P.Nalivkin (1887), A.N.Rozanov (1938), M.S.Siddiqov (1976), M.A.Pankov (1957), A.Maksudov (1979), V.Yu.Isaqov (1982), S.X.Zakirova (2017), M.A.Yusupova (2020) va b. bu mualliflarning ishlarida Sirdar'yoning zamonaviy va qadimiy yotqiziqlari, Gumxona ko'tarima qatorlarini tarkibidagi qumtoshlarning nurab, to'zg'iyyotgan mahsulotlari, So'x, Isfara, Shoximardon, Isfayram va boshqa daryolarning qum-shag'alli prolyuviy yotqiziqlari, shuningdek irrigatsiya tizimlar keltiradigan qumli materiallar hisoblanadi [3, 4, 5]. Qumli dahalarning tuproqlari karbonatli va gipslashgan, yuqori darajada sho'rangan. O'troq qumlarda gumus miqdori 0,3-0,5%, qumli cho'l tuproqlarda 0,5-0,8%, sho'rangan o'tloqi tuproqlarda 1-1,2% ga teng [2, 3, 6].

Tadqiqot obyekti sifatida Markaziy va G'arbiy Farg'onaning qumliklari va qumli cho'l tuproqlari tanlangan. Bu hududlar quruq iqlim sharoitida eroziya va deflyatsiya jarayonlari natijasida shakllangan. Tadqiqotning maqsadi qumli hududlarning tabiiy va ekologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning antropogen ta'sirlar natijasida qanday o'zgarayotganini o'rganishdir.

Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda qiyoziy geografik, morfogenetikaviy, analitik kimyo usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Laboratoriya tekshiruvlari tuproqshunoslikda umum qabul qilingan analitik usullar asosida tashkil qilindi. Dala tadqiqotlarini bajarishda "Davlat yer kadastri uchun tuproq tadqiqotlarini o'tkazish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalar" va V.V.Dokuchayev nomidagi Tuproqshunoslik institutining "Metodik tavsiyalar"iga amal qilindi.

Tadqiqotlarda, shuningdek hududning topografik, geomorfologik, tuproq xaritalaridan, kartografik tahlil usulidan, Qo'qon meteorologik stantsiyasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Qumli dahalarda shakllangan landshaftlarning turli-tumanliklarini quyidagi sinflarga birlashtirish mumkin: 1-galofitlar va yantoqdan iborat siyrak o'simlik qoplamlari so'rangan qumloq tekisliklardagi to'zg'igan kichik qumtepa qatorlari; 2-o't-buta o'simlikli pastqamliklardagi harakatchan barxan qumlar; 3-o't-buta o'simlikli, botiq maydonchalari bo'lgan to'zg'igan qumtepa qatorlari; 4-o't-buta o'simlikli, botiq maydonchalari bo'lgan yarim mustahkamlangan va mustahkamlangan qumtepa qatorlari; 5-suvli (suv bosgan) pastqamli va tepe qismida botiq maydonchalari bo'lgan yarim mustahkamlangan o't-buta o'simlikli qumtepalar.

Vodi qumliklari o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega. Qumli hududlardagi o'simlik va hayvonot dunyosi quruq sharoitlarga moslashgan turlardan iborat. Saxro akasiyalari, shuvoq, cho'l yantoqlari kabi o'simliklar yer ostidan suv olish qobiliyati orqali cho'l sharoitida ham yashay oladilar.

Vodi qumli hudidlarining g'arbiy qismidagi Qayroqqum qumliklarida *Salsola dendroides*, *Halostachys belangeriana*, *Karelinia caspia*, *Alhagi pseudoalhagi*, *Lycium dasystemum*; в понижениях с водой *Aeluropus littoralis* va *Tamarix sp.* kabi buta va yarim buta o'simliklari siyrak qoplam hosil qilgan.

Markaziy qismidagi Doimobod va Chinobod qumliklarining harakatchan barxanlari pastqamliklarda *Anisantha tectorum*, *Atriplex sp.*, *Sinecio subdentatus*, *Zygophyllum oxianum*, *Alhagi pseudoalhagi*, *Artemisia ferganensis*, *Salsola sp.*, *Calligonum sp.* va to'zg'igan o'yqli qumtepa qatorlarida *Anisantha tectorum*, *Hordeum leporinum*, *Heliotropium acutiflorum*, *Stipa grossa*, *Alhagi pseudoalhagi*, *Salsola dendroides*, *Limonium sp.*, *Calligonum sp.*, *Tamarix sp.* o'simliklari o'sadi.

Qumliklarning sharqiy qismi Qoraqalpoq cho'llari va uning shimoliy-g'arbidagi Oqqum dahasidagi yarim mustahkamlangan va mustahkamlangan o'yqli qumtepa qatorlari florasi *Anisantha tectorum*, *Hordeum leporinum*, *Poa bulbosa*, *Heliotropium acutiflorum*, *Artemisia ferganensis*, *Horaninovia ulicina*, *Corispermum lehmanianum*, *Alhagi pseudoalhagi*, *Lycium dasystemum*, *Calligonum sp.* o'simliklaridan iborat.

Qoraqalpoq cho'llarining suv bosgan pastqamli va tepe qismida botiq maydonchalari bo'lgan yarim mustahkamlangan qumtepalarining o'simlik qoplarni *Anisantha tectorum*, *Hordeum leporinum*, *Heliotropium acutiflorum*, *Alhagi pseudoalhagi*, *Artemisia sp.*, *Lycium dasystemum*, *Calligonum sp.* va suv bo'yalarida *Phragmites australis*, *Tamarix sp.* kabilari tashkil qilgan.

### **3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**

Hayvonot dunyosi, asosan, sudraluvchilar, qushlar va mayda kemiruvchilar bilan ifodalanadi. Qumli dahalar mahalliy *Phrynocephalus strauchi* (dumaloq boshli Shtrauxa), *Eremias scripta pherganensis* (ola-bula Farg'ona kaltakesagi) va *Teratoscincus scincus rustamowi* (tsinkli Rustamov gekkoni) tur va kichik turlaridan iborat sudralib yuruvchilarning noyob tabiiy majmuasiga ega. Bu sudralib yuruvchilar faqat Farg'ona vodiysida yashaydi va ular O'zbekiston Qizil kitobiga (2009) kiritilgan [1].

Ekologik monitoring natijasida qumli hududlardagi tabiiy ekotizimlar katta tahdid ostida ekanligi aniqlangan. Inson tomonidan amalga oshirilayotgan chorvachilik, yerlarning noto'g'ri sug'orilishi va infratuzilmaviy qurilishlar tabiiy muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. O'simlik qoplamasining siyraklashuvi tuproqning eroziyaga uchrashini kuchaytirib, qumli hududlarning kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Qumli hududlarning asosiy geomorfologik va ekologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Geomorfologik xususiyatlari: Farg'ona vodiysi qumli hududlarining yirik geomorfologik shakllari shamol eroziyasi natijasida hosil bo'lgan. Bu hududlarda yirik qum tepalari, ko'chma qum barxanlari, va deflyatsiya bo'shlqlari keng tarqalgan. Shamol kuchi va yo'nalishiga qarab, qum massasining joylashuvi yil sayin o'zgarib turadi. Ushbu jarayon tabiiy iqlim sharoitlariga, xususan, shamol tezligi va yo'nalishiga bog'liq. Eroziyaga chidamsiz bo'lgan hududlar ko'proq ko'chma qumlar bilan qoplanadi, bu esa ekologik zararlarni keltirib chiqaradi.

- Tuproq xususiyatlari: Qumli hududlarning tuproqlari, asosan, qumli va qumloqli bo'lib, filtratsiya xossalari juda yuqori, suvni ushslash qobiliyati esa juda past. Tuproqning qumli tarkibi va suvsizlik sababli o'simlik qoplami zinch emas. Sho'rلانish jarayoni qumtepa va barxan qatorlari oraliqlari pastqamliklarida kuchaygan. Bu esa hududning meliorative holatini jiddiy murakkablashtirgan. Tuproqning degradatsiyasi eroziya va deflyatsiya jarayonlari bilan birlgilikda davom etmoqda.

- Iqlim o'zgarishlari: Qumli hududlar iqlim sharoitlariga juda sezgir bo'lib, bu yerda yil davomida haroratning keskin o'zgarishi va yog'ingarchilikning juda kamligi kuzatiladi. O'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori kam bo'lganligi sababli, bu hududlar quruq va cho'l ekotizimlaridan iborat. Issiq yoz va qishdagi sovuq sharoitlar tuproq va o'simlik qoplamasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

- Antropogen ta'sirlar: Chorvachilik, yerlarning noto'g'ri sug'orilishi va infratuzilma, qurilishi kabi inson faoliyatları bu hududlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tuproqning eroziyasi va o'simlik qoplamasining siyraklanishi antropogen ta'sirlar natijasida tezlashgan. Qumli hududlardagi o'simliklarning kamayishi, ayniqsa, o'tloq va yaylovlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yerlarning cho'llanishini kuchaytiradi.

Natijada, Farg'ona vodiysining qumli hududlari ekologik jihatdan zaif bo'lib, o'simlik va hayvonot dunyosining barqarorligini ta'minlash uchun maxsus ekologik boshqaruv choralari talab etiladi.

#### **XULOSA**

Farg'ona vodiysi qumli hududlari o'zining noyob geomorfologik va ekologik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi muhim mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu hududlar qurg'oqchil iqlim sharoitida shakllangan bo'lib, ulardagi o'simlik va hayvonot olami cheklangan darajada rivojlangan. Iqlim o'zgarishlari va kuchayib borayotgan antropogen ta'sir tufayli bu hududlarda tabiiy muvozanat buzilgan. Shu sababli, qumli hududlarni ekologik monitoring orqali nazorat qilish, shamol eroziyasi bilan kurashish hamda yer unumdarligini oshirish uchun barqaror texnologiyalarni joriy qilish kabi chora-tadbirlar muhimdir.

Kuzatuvalar hududda barqaror ekologik boshqaruv tizimlari joriy etilishini talab etadi. O'simlik qoplamasini tiklash, cho'lga chidamli o'simliklarni ekish, chorvachilikni me'yorlash va yerlarning noto'g'ri foydalanishini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Бондаренко Д.А. Население пресмыкающихся песчаных местообитаний Ферганской долины (Узбекистан) и проблема сохранения эндемичных видов // Современная герпетология. Т. 20, вып. 2020. 1/2. С. 3 – 15.

2. Закирова С.Х. Научные основы генезиса, агрофизических и агрохимических свойств, повышения производительной способности песков Центральной Ферганы. Автореф. дисс.на уч.ст. доктора с/х наук (DSc). – Ташкент, 2017.

**3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**

3. Исаков В.Ю., Мирзаев У.Б., Юсупова М.А. К характеристике почв песчаных массивов Центральной Ферганы // Современное состояние и перспективы развития мелиоративного почвоведения. Матер. междунар. конф. посвященной 100-летию В.М.Боровского. –Алматы, 2009, 35-38 с.
4. Наливкин В. Опыт исследования песков Ферганской долины. -Новый Маргелан, 1887. –С. 228.
5. Розанов А.Н. Пески Ферганской долины // Работы сектора песков и пустынь. Научн. тр. Почвенного института им. В.В.Докучаева. Том XVII. -М.-Л.: Изд. АН СССР, 1938. С. 119-161.
6. Yusupova M.A. Markaziy Farg'onadagi qumli dahalarining agroekomeliorativ holati va unung antropogen ta'siridagi o'zgarishi. Dissertatsiya (PhD) avtoreferati. - Farg'ona, 1920. – 46 b.